



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmira Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
Maqsudova Gulnoz Olimovna	
Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
Sharipova Muhabbat Erkinovna	
Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
Safarova Madina Azamat qizi	
Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
Аскарова Гулрух Оринбасаровна	
Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	



YOSH ONALARNING PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARIGA OID ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna
 Toshkent Gumanitar fanlar universiteti
 "Pedagogika" yo'nalishi magistranti



Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh onalarning pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Onalikning zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitdagi mazmuni, ota-onalik kompetensiyasi, pedagogik madaniyat va tarbiyaviy faoliyatning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga ta'sir etuvchi individual, oilaviy va ijtimoiy omillar hamda ularni rivojlantirishning samarali mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari yosh onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish bolalarning sog'lom rivojlanishi, oilaviy farovonlik va jamiyatning inson kapitalini mustahkamlashning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Kalif so'zlar: yosh ona, pedagogik kompetensiya, ota-onalik kompetensiyasi, pedagogik madaniyat, oilaviy tarbiya, onalik, bola rivojlanishi, tarbiyaviy faoliyat, ota-onalar ta'limi.

Abstract: This article examines scientific and theoretical approaches to the pedagogical competencies of young mothers. The study analyzes the concepts of parenting competence, pedagogical culture, and the psychological and pedagogical foundations of family education. Particular attention is paid to the individual, family, and social factors influencing the development of pedagogical competencies among young mothers. The findings emphasize the importance of strengthening parenting competencies as a key factor in ensuring child development, family well-being, and the formation of human capital.

Key words: young mother, pedagogical competence, parenting competence, pedagogical culture, family education, motherhood, child development, parenting skills, parental education.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические подходы к педагогическим компетенциям молодых матерей. Анализируются современные представления о родительской компетентности, педагогической культуре и психолого-педагогических основах семейного воспитания. Особое внимание уделяется факторам, влияющим на формирование педагогических компетенций молодых матерей, а также возможностям их развития в условиях современной семьи. Подчеркивается значимость педагогической компетентности матери как важного условия гармоничного развития ребёнка и благополучия семьи.

Ключевые слова: молодая мать, педагогическая компетентность, родительская компетентность, педагогическая культура, семейное воспитание, развитие ребёнка, материнство.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda oilaning tarbiyaviy salohiyati va ota-onalarning pedagogik savodxonligi masalalari dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh onalarning pedagogik kompetensiyasi bolaning jismoniy, intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bola hayotining dastlabki yillarida ona asosiy tarbiyachi sifatida uning rivojlanish muhiti, qadriyatlarini va ijtimoiy tajribasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi ^[1].

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning murakkablashuvi, axborot oqimlarining ortishi, ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi va ota-onalikka qo'yilayotgan yangi talablar yosh onalardan yuqori darajadagi pedagogik kompetensiyani talab etmoqda ^[2]. Shu bois yosh onalarning pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va oila sotsiologiyasining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Mazkur maqolaning maqsadi yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlil qilish hamda ushbu kompetensiyaning tarkibiy qismlari, rivojlanish omillari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik kompetensiya tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida keng qo'llaniladigan kategoriyalardan biridir.

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari D. Raven, J. Delors, A.K. Markova va I. A. Zimnyaya tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular kompetensiyani bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarning integratsiyalashgan tizimi sifatida talqin qilganlar [3; 4].

Ota-onalik kompetensiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlarda Diana Baumrind (Diana Baumrind), John Bowlby (John Bowlby), Urie Bronfenbrenner (Urie Bronfenbrenner) va Rudolf Dreikurs (Rudolf Dreikurs)ning ilmiy qarashlari muhim ahamiyatga ega. Ularning fikricha, bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi ota-onalarning emotsional sezgirligi, tarbiyaviy uslubi va pedagogik tayyorgarlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir [5].

Lev Vygotskiy va Aleksey Leontyev tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy hamda faoliyat yondashuvlari ham ota-onalik kompetensiyasini tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlarga ko'ra, bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va yaqin kattalar bilan o'zaro ta'sir jarayonida amalga oshadi [6].

O'zbekistonlik olimlar orasida V.M. Karimova oilaviy munosabatlar va ota-onalik madaniyatining psixologik jihatlarini tadqiq etib, oiladagi sog'lom psixologik muhit bolaning barkamol rivojlanishining asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [7].

G'.B. Shoumarov, E.G'. G'oziyev, M.G. Davletshin va Z.T. Nishonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oila psixologiyasi, shaxs rivojlanishi va oilaviy tarbiyaning psixologik mexanizmlari keng yoritilgan [8; 9].

So'nggi yillarda professor D.U. Abdullayeva tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslarini ochib berishga qaratilgan. Olimaning fikricha, ona va bola o'rtasidagi munosabatlar bolaning emotsional xavfsizligi, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Onaning psixologik tayyorgarligi, emotsional kompetentligi va tarbiyaviy pozitsiyasi bola rivojlanishining sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi [10].

Shuningdek, A. Muxsiyeva va U. Abirovalarning "Oila pedagogikasi" o'quv qo'llanmasida oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari, ota-onalarning pedagogik madaniyati va oilaviy tarbiyaning zamonaviy tamoyillari keng yoritilgan. Mualliflar oilaviy tarbiya samaradorligi ota-onalarning pedagogik savodxonligi va tarbiyaviy faoliyatni ongli tashkil etishiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat nazariyasi, tizimli-oilaviy yondashuv va ijtimoiy-konstruktivistik paradigmalarda tashkil etdi.

Tahlil uchun yosh onalarning pedagogik kompetensiyasi, ota-onalik kompetensiyasi, oilaviy tarbiya va ona-bola munosabatlariga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tanlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh onalarning pedagogik kompetensiyasi murakkab integrativ tuzilma bo'lib, u pedagogik bilimlar, amaliy ko'nikmalar, emotsional kompetentlik, refleksiv qobiliyat va tarbiyaviy qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan pedagogik kompetensiya faqat ma'lum bilimlar majmui emas, balki ushbu bilimlarni real hayotiy va tarbiyaviy vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyati bilan ham belgilanadi [3].

Tadqiqotlar yosh onalarning pedagogik kompetensiyasi tarkibida kognitiv, emotsional, kommunikativ va faoliyat komponentlari mavjudligini ko'rsatadi. Kognitiv komponent bolaning yosh xususiyatlari, rivojlanish qonuniyatlari va tarbiya metodlari haqidagi bilimlarni qamrab olsa, emotsional komponent bolaning hissiy holatini tushunish, empatiya namoyon qilish va xavfsiz emotsional muhit yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Kommunikativ komponent esa ona va bola o'rtasidagi samarali muloqotni tashkil etish bilan bog'liqdir [5].

John Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan bog'lanish nazariyasiga ko'ra, bolaning dastlabki yillardagi emotsional xavfsizligi va keyingi ijtimoiy moslashuvi onaning sezgirligi va hissiy javob qaytarish qobiliyatiga bog'liq [5]. Shu bois pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida emotsional kompetentlik va empatiya alohida ahamiyat kasb etadi.

Professor D.U. Abdullayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslari chuqur tahlil qilingan. Olimaning ta'kidlashicha, onalikning samaradorligi onaning psixologik tayyorgarligi, emotsional kompetentligi va tarbiyaviy pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir [10]. Muallif ona va bola o'rtasidagi munosabatlarni bolaning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiylashuvining asosiy



psixologik omillaridan biri sifatida baholaydi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik kompetensiya bolaning ehtiyojlarini tushunish, uning emotsional holatini to'g'ri baholash va rivojlantiruvchi muhit yaratish qobiliyatlari orqali namoyon bo'ladi.

A. Muxsiyeva va U. Abirovalarning fikricha, oilaviy tarbiya samaradorligi ota-onalarning pedagogik madaniyati, tarbiyaviy pozitsiyasi va pedagogik bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatiga bog'liqdir ^[11]. Mazkur yondashuv yosh onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish oilaning tarbiyaviy salohiyatini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Tahlillar asosida muallif tomonidan quyidagi ilmiy mulohazalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, yosh onalarning pedagogik kompetensiyasini faqat pedagogik bilimlar majmuasi sifatida talqin qilish yetarli emas. Zamonaviy oilaviy tarbiya sharoitida pedagogik kompetensiya bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, onaning qadriyatlar tizimi, refleksiv qobiliyati, emotsional intellekti va tarbiyaviy mas'uliyat hissini ham qamrab oluvchi integrativ psixologik-pedagogik tuzilma sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, o'rganilgan ilmiy manbalar va nazariy yondashuvlar tahlili yosh onalarning pedagogik kompetensiyasi bolaning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatmoqda. Bola shaxsining dastlabki rivojlanish bosqichlarida ona bilan o'rnatilgan munosabatlar uning o'ziga bo'lgan ishonchi, emotsional xavfsizligi, kommunikativ faolligi va ijtimoiy moslashuvining psixologik poydevorini yaratadi ^[5; 10]. Shu nuqtai nazardan, yosh onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-psixologik va demografik ahamiyatga ega bo'lgan strategik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Muallifning fikricha, bugungi kunda yosh onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ishlar ko'proq ma'rifiy xarakter kasb etib, asosan nazariy bilimlarni yetkazishga yo'naltirilgan. Biroq zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazardan samarali natijaga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar, psixologik treninglar, ota-onalik mahorati maktablari, mentorlik dasturlari va tajriba almashish platformalarini keng joriy etish zarur.

Shuningdek, D.U. Abdullayeva tomonidan asoslab berilgan ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik modeli ^[10] hamda A. Muxsiyeva va U. Abirovalarning oilaviy tarbiya konsepsiyalari ^[11] asosida shuni ta'kidlash mumkinki, pedagogik kompetensiyaning rivojlanishi oiladagi emotsional muhit sifatida bilan uzviy bog'liqdir. Oila ichidagi iliq munosabatlar, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash muhiti mavjud bo'lgan sharoitda onalarning pedagogik imkoniyatlari samaraliroq namoyon bo'ladi. Aksincha, oilaviy nizolar, stress va psixologik zo'riqishlar pedagogik faoliyat samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Umuman olganda, o'tkazilgan nazariy tahlillar yosh onalarning pedagogik kompetensiyasi bolaning barkamol rivojlanishi, sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish va jamiyatning inson kapitalini rivojlantirishda muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlillar yosh onalarning pedagogik kompetensiyasi zamonaviy oilaviy tarbiyaning eng muhim psixologik-pedagogik resurslaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Pedagogik kompetensiya faqat bolaning tarbiyasi va rivojlanishiga oid bilimlar majmuasi bilan cheklanmay, balki onaning emotsional kompetentligi, refleksiv qobiliyati, kommunikativ madaniyati, tarbiyaviy mas'uliyati va qadriyatli munosabatlarini ham o'z ichiga oluvchi integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan ilmiy manbalar yosh onalarning pedagogik kompetensiyasi bolaning emotsional xavfsizligi, ijtimoiylashuvi, intellektual rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, ona va bola o'rtasidagi ijobiy emotsional munosabatlar, onaning pedagogik savodxonligi hamda bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan tarbiya jarayoni bolaning barkamol rivojlanishi uchun qulay psixologik sharoit yaratadi.

Muallifning fikricha, yosh onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, demografik va psixoprofilaktik ahamiyatga ega bo'lgan strategik vazifadir. Chunki pedagogik jihatdan kompetent ona oiladagi sog'lom psixologik muhitni shakllantirish, bolalarda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirish, xulq-atvor muammolarining oldini olish hamda kelajakda jamiyatning inson kapitalini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- yosh onalar uchun ota-onalik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, mahallalar va oilaviy poliklinikalar huzurida "Yosh onalar maktabi" faoliyatini yo'lga qo'yish;
- ota-onalik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan treninglar, seminarlar va psixoedukativ mashg'ulotlarni muntazam tashkil etish;

- yosh onalarning pedagogik savodxonligini oshirish maqsadida zamonaviy raqamli ta'lim platformalari, mobil ilovalar va masofaviy maslahat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlarini baholash va monitoring qilishga mo'ljallangan milliy psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda amaliyotchi mutaxassislar hamkorligida yosh onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha kompleks ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqish.

Umuman olganda, yosh onalarning pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli va ilmiy asoslangan faoliyat oilaviy tarbiya sifatini oshirish, bolalarning barkamol rivojlanishini ta'minlash hamda jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kelgusida ushbu muammoni empirik tadqiqotlar asosida o'rganish, pedagogik kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlarini aniqlashtirish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent, 2025.
2. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
3. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – London: H.K. Lewis & Co. Ltd., 1984. – 251 p.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
5. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. – New York: Basic Books, 2000. – 425 p.
6. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика-Пресс, 1999. – 536 с.
7. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 320 b.
8. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2008. – 256 b.
9. Nishonova Z.T. Oila va shaxs rivojlanishi psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2016. – 280 b.
10. Abdullayeva D.U. O'zbek oilalarida ona va bola munosabatlarining ijtimoiy-psixologik asoslari: 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.
11. Muxsiyeva A., Abirova U. Oila pedagogikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.